

Qishloq xo'jaligi – iqtisodiyot asosi!

Joriy yil 5-fevral kuni Xalqaro Press-klubning Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan navbatdagi sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zR FA vitse-prezidenti B.T.Ibragimov, akademiklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, yetakchi olimlar, Qishloq xo'jaligi, Suv xo'jaligi, Innovatsion rivojlanish vazirliklari, Toshkent davlat Agrar universiteti rahbar xodimlari ishtirok etdi.



Xalqaro Press-klubning ushbu sessiyasida Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan 4 ta asosiy yo'nalishni rivojlantirish istiqbollari, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi yutuqlar, muammolar, istiqbolli rejalar, har bir sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va bu orqali mamlakatimiz iqtisodini ko'tarish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish kabi masalalar muhokama qilindi.

